

**O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA “MUHABBAT”
KONSEPTINING ANTROPOSENTRIK TADQIQI**

Sa’dullayeva Madina Qosimovna,
BuxDU magistranti

Annotatsiya. O‘zbek xalq maqollarida “muhabbat” konseptining antroposentrik nuqtayi nazaridan o‘rganish urf-odat va an‘analarimizni to‘la-to‘kis namoyon qilish imkonini beradi. O‘zbek millatiga xos bo‘lgan samimiylik, kuyunchaklik belgilarini ochib beradi. O‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantiruvchi mezon vazifasini bajaradi.

Kalit so‘zlar: *lingvokultralogiya, madaniy qadriyat, madaniy belgi, antropotsentrizm*

Insonning obyektiv olamdagi barcha ijtimoiy xatti-harakatlari uning nutqiy faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun inson nutqini o‘rganish uning ma’naviy olami bilan tanishish imkonini beradi. Har bir millat o‘zida milliy an‘analarni aks ettiradi. Ya’ni har bir xalq milliy an‘analari, urf-odatlari yashash tarzi, kelib chiqish tarixini xalq og‘zaki ijodi na‘munalarida saqlaydi. Bu ma’noda har bir inson ana shu milliylikni o‘zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo‘ladi. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida predmetga ega bo‘lgan yangi soha – lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o‘rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi. Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til sohibi – so‘zlovchi shaxsning til xususiyatlarini madaniyat etaloni nuqtayi nazaridan o‘rganishga imkon beradi.

Tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi tilni tadqiq etishda asosiy e’tiborini shaxs omiliga qaratadi. Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalardan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlanadi. *Antropotsentrizm* so‘zi yunoncha anthropos – odam hamda lotincha centrum – markaz ma’nosini bildiruvchi so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan [2.,2.]. Ushbu

qarashlarda shaxs madaniyat markazida turadi. So‘z unsurlari uning xoxish-istaklariga bo‘ysundiriladi, ya’ni til inson uchun xizmat qiladi. Insonning dunyodagi o‘rnini qayta ko‘rib chiqish antropotsentrizmning paydo bo‘lishiga olib keldi – bu yo‘nalishga ko‘ra, olamning markazi va eng oliy maqsadi insondir.

Antropotsentrizm termini dastlab qadimgi yunon falsafasining “Inson – koinot markazidir” degan g‘oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, bu g‘oya, ayniqsa, O‘rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi. Antropotsentrizm odamlarni tabiatdan alohida va undan ustun deb hisoblaydi va inson hayoti o‘ziga xos qiymatga ega, boshqa mavjudotlar (jumladan, hayvonlar, o‘simliklar, mineral resurslar va boshqalar) insoniyat manfaati uchun haqli ravishda ishlatilishi mumkin bo‘lgan resurslardir. Ko‘pgina axloqshunoslar antropotsentrizmning ildizlarini Yahudiy-Xristian Injilining “Ibtido” kitobida aytilgan Yaratilish tarixidan topadilar, unda odamlar Xudo suratida yaratilgan va Yerni “bo‘ysundirish” va hamma narsada “hukmronlik qilish” haqida ko‘rsatma bergan degan qarashni ilgari suradilar.

Tilni antroposentrik nuqtayi nazaridan o‘rganish. Millatning xarakter-xususiyatini ochish imkonini beradi. Masalan: *Mard yigitga sevgi – sinov* muhabbat mardlik timsoli, bu yo‘lda oshiqlardan katta jasorat talab qilinishi xalqimizning go‘zal topilmalari orqali tushuntirib berilgan. Demak, antroposentrik tilshunoslik tilni “madaniyat ochog‘i” sifatida o‘rganadi. Antroposentrik tilshunoslikning tadbiq metodi inson va uning til uslubi hisoblanadi. Matn yaratilishida shaxsning kognitiv faoliyatini tadqiq etish o‘zbek mentalitetiga xos fikrlash tarzini ham chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Antropotsentrizm tilni nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki millatning maxsus madaniy kodeksi sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi. Unda insonning quvonch-shodligi, g‘am-anduhi, qahr-g‘azabi ifodalanadi. Antroposentrik yondashuv doirasida lingvistik shaxs shakllanadi.

O‘zbek xalqining milliy belgilari xalq og‘zaki ijodi na’munalarida rivojlanib, avloddan-avlodga o‘tib boradi. Antroposentrik yondashuv madaniyat rivojining barcha qirralarini, xususan, insonning hayot tarzi, mentaliteti, milliy xarakteri, ma’naviy, ijtimoiy va ishlab chiqarish faoliyatini tadqiq etadi. Madaniy antropologiya insonning madaniyatni muloqot orqali rivojlantirishdek nodir qobiliyatini o‘rganadi, til va madaniyatning o‘zaro aloqasiga

alohida e’tibor qaratadi. A.Boduen de Kurtene ta’biri bilan aytganda, “...til faqat til jamoasini tarkib toptirgan individual miyalarda, ko’ngillarda va individlarning psixikasida mavjud bo’ladi”[6.,13]. Tilning antroposentrik g’oyasi zamonaviy tilshunoslikning asosini tashkil qiladi. Antroposentrik paradigma dunyoni anglashni, uni his etishni o’rgatadi. Barcha narsalarning o’z o’lchovini anglash insonga, uning ongida narsalarning antroposentrik tartibini ijod qilish huquqini beradi. Inson miyasida mavjud bo’lgan bu tartib uning ma’naviyatini, qadriyatlarini va xatti-harakatini belgilaydi. Bularning barchasi inson nutqini, xususan, uning eng ko’p qo’llaydigan ifodalarini tadqiq qilish orqali tushunish mumkin. Inson miyyasida bir-biriga yaqin tushunchalarni jamlaydi. Bu tushunchalar ma’lum paradigma shaklida ongda voqelanadi. Nutq jarayonida, nutqiy vaziyatdan kelib chiqib ulardan biri tanlanadi. Nutqning tushunarli va tasirchanligini belgilovchi jarayonda shaxsning bilim, ko’nikma va malakasi yuzaga chiqadi.

Til – komunikatsiya vositasi, tafakkur mahsuli bo’lib hisoblanadi. Unda axborot beriladi va axborot qabul qilinadi. Bu jarayonda til va tafakkurning o’rin almashinishi, ya’ni inson axborot berganda tilning bosh rolga chiqishini, ma’lumot qabul qilinganda esa tafakkurning harakati yetakchi o’rinni egallaydi. Antroposentrik tilshunoslik til va tafakkur o’rtasida ko’prik vazifasini o’taydi. Ularning madaniyat etalonini ko’rsatib anglatib turadi. Paremalarda muhabbat tuyg’usining mohiyatini va chegarasini aniqlash mushkul, bu tuyg’u tafakkur doiramizdan ancha keng, axloqiy tamoyillarni belgilaydi. Muhabbat tushunchasi ma’lum bir tarzda butun jamiyat hayotining ko’p jabhalariga ta’sir qiladi. Muhabbat – murakkab va noaniq hodisa bo’lishi bilan bir qatorda unda ma’naviy, shaxsiy, shuningdek, ijtimoiy omillarning kesishuvini ko’ramiz. Muhabbat tuyg’usini qiz va yigitning ishqiy munosabati sifatida qabul qilib bo’lmaydi, aksincha bu tuyg’u jamiyat hayoti uchun umumiy, har bir shaxs uchun esa xususiy, takrorlanmas, tafakkur va biologik ehtiyoj mahsuli. Muhabbat shaxs psixikasi, fiziologik va biologik holatidan kelib chiqib turli ko’rinishlarda rivojlanadi. Inson hayoti misolida tushuntirilsa, hali o’z ehtiyojini qondirolmaydigan bolada ota-onasiga bo’lgan muhabbat ustunlik qiladi; voyaga yeta boshlagan sari muhabbat dunyosi kengayadi; keksalik shamoli esa boshlagach esa inson Allohni taniy boshlaydi; Allohga muhabbat qo’yadi. Demak,

muhabbat – komillik sari yetaklovchi, bir-birini to‘diruvchi, davriy, barqaror tuyg‘u. Inson tafakkurida muhabbat quyidagicha voqelanadi:

- farzandning ota-onaga bo‘lgan muhabbat;
- ota-onaning farzandga bo‘lgan muhabbat;
- o‘qish va izlanishga muhabbat;
- Ona Vatanga muhabbat;
- hayotga muhabbat;
- do‘stlargabo‘lgan muhabbat;
- muallimning tolibiga, va aksincha, shogirtning ustozga bo‘lgan muhabbat;
- qarama-qarshi jins vakiliga bo‘lgan muhabbat;
- inson qo‘li bilan yaratilgan barcha narsalarga muhabbat;
- kasbga bo‘lgan muhabbat
- Allohga muhabbat;

Hatto, inson psixikasidagi ruhiy qaramlik ham muhabbatning bir ko‘rinishidir. Birgina tushuncha jamiyat hayotidagi minglab tushunchalar bilan birlashadi va yaxlit tizimlashgan butunlikni tashkil qiladi. Antroposenrik yondashuv mana shu jarayonni nazorat qiluvchi me‘zon bo‘lib hisoblanadi. Madaniyat belgilarini xarakterlovchi til unsurlarida kundalik turmushda faol ishlatiladiga so‘zlarning ta’sir doirasini tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Xalqimizda azaldan bola tarbiyasiga katta e’tibor qaratiladi, beshikdan qabrgacha bolaning ilm izlanishiga da’vat qilinadi. Bolaning kamolot davrining eng sermahzun va o‘zgarishlarga boy bo‘lgan, keskin qarorlar qabul qiladigan davrida unga alohida e’tibor talab qilinadi. Muhabbat bolaning mana shu keskinlik davrlaridan eng qizg‘in davriga to‘g‘ri keladi. Shu ma’noda “muhabbat” mavzusini ifodalovchi maqollarning mavzular olamiga e’tibor berilsa, ularda vafodorlik, mehr, sadoqat, hukmronlikni ifodalovchi maqollarning ko‘pligiga guvoh bo‘lamiz. Guvohi bo‘lganimizdek antroposentrizm inson dunyodagi va tildagi bosh qahramon sifatida tilshunoslikka turli yo‘llar bilan o‘zining munosib o‘rniga qaytaradi. Goh so‘zlovchi bo‘lib goh tinglovchi bo‘lib nutq jarayoniga qaytadi. Til insonga xizmat qiladi va shaxssiz mavjud bo‘lmaydi. Madaniy tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikdagi antropotsentrik paradigmaning “mahsuloti”dir. Antroposentrizm ona tilida so‘zlashuvchilar dunyosini (tilni emas, balki dunyoni), ularning madaniyatini so‘zning keng etnografik ma’nosida chuqurroq o‘rganish; ularning turmush tarzi, milliy xarakteri, mentaliteti lingvistik tuzilmalarning asosini ijtimoiy-madaniy tuzilmalarini

tadqiq etadi. Har qanday muloqotning zamirida madaniyat belgilarining umumlashlasi jamlangan bo‘ladi. Mazkur sohaning vujudga kelishi millatning buguni va kelajagini o‘rganishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa shuki, antroposentrizm madaniyat hodisalarini “ochish” imkonini beradi, madaniyatlar to‘qnashuvi xavfini yo‘q qiladi. Milliy o‘ziga xoslikni ko‘rsatib beradi. Shaxs ma’naviy tafakkurini boyitadi. Milliy ma’daniyatimizning avloddan-avlodga yetib borishini ta’minlaydi. “Muhabbat”ning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatini belgilaydi. Inson shunchaki mavjud bo‘lmaydi. Muhabbat insonning xatti-harakatlarini tartibga solib turuvchi kuch vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amonov A.T. Paremiyalarning xususiyatlari va ularni madaniy me’ros sifatida o‘rganish // Ilmiy axborotnoma.– Samarqand 2016. –№ 4 –114 b.
2. Boboxonova D. Psixolingvistika fanidan maruza matni.– Namangan, 2019.–77 b.
3. Darvishov I. Lingvokulturologiya. – Namangan, 2021.–B.120.
4. Mamatov E.Zamonaviy tilshunoslik – T., 2019. –171 b.
5. Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari T., Sharq, 2005. – 257 b.
6. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – T., 2019. – B. 248.

ETNOTOPONIMLAR XUSUSIDA (Vobkent tumani misolida)

Safarova Maftuna Zoir qizi,
BuxDU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada etnonimlar, ularning etnik xususiyatlari hamda nomlanish xususiyatlari bevosita Buxoro viloyati hududidagi Vobkent tumani misolida o‘rganib chiqilgan. Etnonimlar ma’lum bir hududlarda tarqalgan xalq va urug‘ nomlari bo‘lib, o‘zlari yashab turgan joyni nomlashga sabab bo‘lganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *atoqli ot, toponim, turkiy etnonimlar, etnotoponim, xalq, urug‘, qabila, etnos, nayman, qipchoq, burqut, qo‘ng‘irot.*

Kishilar ismi, joy nomlarining kelib chiqishi, etnografiya, etnonimning ma’no va etimologiyasi haqida tarixiy manbalar orqali anchagina ma’lumot olishimiz mumkin. Atoqli ot materiallarini tizimli va izchil ravishda to‘plash, ularni ilmiy asosda tahlil qilish o‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. O‘zbek